






2022- yilning yanvar oyida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar oyida Navoiy viloyatida jami **296,8** mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan **101,6 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni,
2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda**

2022- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 1 691 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 120 taga oshdi.



Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **111,6 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **51,8 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **107,4 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **6,9 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **103,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **41,3 %**) o'sishidir.




Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

		Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.02.2021- yil	01.02.2022- yil	
				
	Navoiy viloyati	1571	1691	107,6
	Navoiy sh.	440	482	109,5
	Zarafshon sh.	127	151	118,9
	G'ozg'on sh.	-	3	-
	<i>tumanlar:</i>			
	Karmana	253	272	107,5
	Konimex	40	41	102,5
	Qiziltepa	233	254	109,0
	Navbahor	191	186	97,4
	Nurota	98	109	111,2
	Tomdi	42	41	97,6
	Uchquduq	51	50	98,0
	Xatirchi	96	102	106,3




Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra (ulushi, % da)



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Navoiy shahri (28,5 %), Karmana (16,1 %) va Qiziltepa (15,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **296,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan **101,6 %** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **7,5 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar oyida yirik qurilish tashkilotlari
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zarafshon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **34,3 %** ni), Navoiy shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **4,6 %** ni) va Qiziltepa tumaniga (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **5,4 %** ni) to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2022-yilning yanvar oyida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **77,2 %** ga to'g'ri kelib, 2021-yilning yanvar oyi ko'rsatkichiga nisbatan **1,9** punktni tashkil etdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021-yilning mos davriga nisbatan **100,0 %** ni tashkil etgan holda **296,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **15,3 %** ni tashkil etdi yoki **45,3** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021-yilning yanvar oyiga nisbatan **87,1 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **22,6** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **274,2** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **7,6 %** va **92,4 %** ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





**2022- yilning yanvar oyida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Nodavlat mulki		Davlat mulki	
		mlrd. so'm	Ulushi, % da	mlrd. so'm	Ulushi, % da
Navoiy viloyati	296,8	274,2	100,0	22,6	100,0
Navoiy sh.	92,4	85,8	31,4	6,6	29,2
Zarafshon sh.	42,3	26,6	9,7	15,7	69,5
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	28,1	28,1	10,2	-	-
Konimex	4,1	4,1	1,5	-	-
Qiziltepa	63,9	63,9	23,3	-	-
Navbahor	19,8	19,8	7,2	-	-
Nurota	17,1	17,1	6,2	-	-
Tomdi	1,4	1,4	0,5	-	-
Uchquduq	5,1	5,1	1,9	-	-
Xatirchi	22,6	22,3	8,1	0,3	1,3

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda


Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik
qayta quollantirish ishlari ulushi
2022- yil yanvar oyida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 83,1 % ni yoki **246,7** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **22,5** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami qurilish ishlaridagi ulushi 7,5 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **229,1** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 77,2 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **45,3** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 15,3 % ni tashkil etdi.






**2022- yilning yanvar oyida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sinh sur‘ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish (mlrd. so‘m)
Navoiy viloyati	296,8	101,6	227,8
Navoiy sh.	92,4	101,3	60,2
Zarafshon sh.	42,3	106,3	41,7
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	28,1	100,2	23,2
Konimex	4,1	97,8	2,5
Qiziltepa	63,9	106,0	46,2
Navbahor	19,8	86,2	15,5
Nurota	17,1	100,5	12,8
Tomdi	1,4	100,3	1,1
Uchquduq	5,1	100,5	3,4
Xatirchi	22,6	100,2	21,2

*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **15,5 %** ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **1,1** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **10,1** punktga ko'payib, **62,8 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yilning yanvar oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **11,3** punktga kamayib, **21,7 %** ni tashkil etdi.

ulushi, % da






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **22,4 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan **0,7 %** ga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **77,6 % (2,3 % ko'payish)** ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan **4,1 %** ga kamaydi va **40,2 %** ni tashkil etdi. Qolgan **59,8 %** ni kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan **14,1 %** ga ko'paydi.

ulushi, % da





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2022- yil yanvar oyida**

mlrd. so'm


	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslash- tirilgan qurilish ishlari
Navoiy viloyati	296,8	246,7	33,6	16,5
Navoiy sh.	92,4	83,3	3,5	5,6
Zarafshon sh.	42,3	26,7	10,9	4,7
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	28,1	24,1	2,6	1,4
Konimex	4,1	4,1	-	-
Qiziltepa	63,9	49,6	9,5	4,8
Navbahor	19,8	17,9	1,9	-
Nurota	17,1	15,2	1,9	-
Tomdi	1,4	1,4	-	-
Uchquduq	5,1	3,8	1,3	-
Xatirchi	22,6	20,6	2,0	-

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishining ulushi, % da




Bino va inshootlar qurilishining jami qurilish ishlariga nisbati, % da




Joriy yilning yanvar oyida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Tomdi tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 % ni yoki **1,4** mlrd. so'm), shuningdek, Konimex tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 % ni yoki **4,1** mlrd. so'm), Xatirchi tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 91,0 % ni yoki **20,6** mlrd. so'm) qayd etildi.

Joriy yilning yanvar oyida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Uchquduq tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmidan 25,9 % ni yoki **1,3** mlrd. so'm), Zarafshon shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 25,9 % ni yoki **10,9** mlrd. so'm), Qiziltepa tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 14,7 % ni yoki **9,5** mlrd. so'm) qayd etildi.

Fuqarolik obyektlari qurilishining jami qurilish ishlariga nisbati, % da



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlariga nisbati, % da



Joriy yilning yanvar oyida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Zarafshon shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 11,0 % ni yoki **4,7** mlrd. so'm), Qiziltepa tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 7,6 % ni yoki **4,8** mlrd. so'm), Navoiy shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 6,0 % ni yoki **5,6** mlrd. so'm) qayd etildi.

2022- yilning yanvar oyida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

(mlrd. soʻmda)

Navoiy sh.
92,4



Qiziltepa t.
63,9



Zarafshon sh.
42,3



Karmana t.
28,1



Ma'lumot uchun: Qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Navoiy shahri (92,4 mlrd.soʻm), Qiziltepa (63,9 mlrd.soʻm), Zarafshon shahri (42,3 mlrd.soʻm), Karmana (28,1 mlrd.soʻm) tumanlariga toʻgʻri keladi.

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi boʻlimi

Tel.: (71) 202-85-20; (79) 223-54-73